“Yadro energetikasi va yadroviy texnologiyalarning hozirgi zamon muammolari” mavzusida xalqaro konferensiya o’z ishini boshladi

Bugun, 23-noyabr kuni O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi institutining 65 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan “Yadro energetikasi va yadroviy texnologiyalarning hozirgi zamon muammolari” mavzusidagi xalqaro konferensiya o’z ishini boshladi.

Konferensiyada nafaqat respublikamiz, balki dunyoning 10 mamlakatidan 195 nafar olimlar offlayn hamda onlayn ishtirok etmoqdalar.

Ushbu konferensiyaning o’tkazilishi fundamental va amaliy yadro fizikasining hozirgi zamondagi tendensiyalari, yadro energetikasi, yadro texnologiyalarini ishlab chiqish va qo’llash, yadroviy tibbiyot sohalaridagi dunyo miqyosida erishilgan yutuqlar bilan keng ko’lamda tanishish imkonini yaratmoqda.

Konferensiya 25-noyabrga qadar davom etadi.